



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 4 (6)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

4

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	8
Mamatov B.S. Foreign investment is an important factor of economic growth.....	15
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	22
Karimov Sh.X. Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	26
Raximov D.Sh. To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	30
Rashidova K. Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	32
Хакимов Д.Р. Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	37
Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	42
Valikulov Sh.Z. O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	48
Ganieva L.S. Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	52
Axrorova N.U. Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	56
Kamilova A.N. Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	61
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	66
Abdiyeva D.K. Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	69
Xalimova N.J. Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	74
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	78
Zaxirova G., Shavkatova N.O’. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	82
Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H. Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	86
Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A. Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlar tahlili.....	89
Xasanov I.M. O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarning transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	94
Abdullayev M.G’. Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri.....	101
Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К. Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	105
Абдуғаниев Ё.Ж. Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	112
Xusanboyeva T.M. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	116
Xashimova S.N. O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	120
Mitillayev I.T. Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	124
Бобоқулова М.Ғ. Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	127
Bekberganova M.R. “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	134
Рахимова М.Ш. Модернизация системы социальной защиты.....	138
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	142
Djumanova R.F. Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	147
Mamatov B.S., Umurzakova M.N. Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....	154
Ешимбетов У.Х. Қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этиш ва иқтисослаштиришнинг илмий асослари.....	158
Xodjaeva F.K. Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	167
Yusupova M. Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	171
Abduxalilov B.Z. O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	175
Abdisamatov A.A. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	178

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Abdusalomov I.J. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta'siri.....	182
Amirov L.F., Sokhibjonova S.S. Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	185
Boltaxo'jayeva I.O'. Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	191
Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G. Korxonalarda bo'nak to'lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta'siri va ularni optimallashtirish bo'yicha tahliliy yondashuvlar.....	195
Isoqova M.A. O'zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	199
Mamadaliyev B., Teshaboyev J. Korxonalarda mehnatga haq to'lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo'llari.....	202
Poziljonov M., Teshaboyev X. Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	206
Rustamova F.A. Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	209
Tursunboyev Q.O. Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	213
Umarov T.S. Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellash va prognozlash.....	216
Xo'jaliyev A.O., Avilov N. Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	220
Xomidov T.T., Arziboyeva R.S. Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	223
Xusainov M. Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	227
Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R. Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	231
Gulimboyev S.I. Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	235
Ibodov J.Q. Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo'g'inlari.....	239
Jumabayeva K.B. Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	243
Khusanova Z.R., Yo'ldasheva Z.U. Global trends in the development of international tourism services....	249
Sadullayev M.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	252
Tilabov N.T. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	256
Toshtemirov Y.N. O'zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	264
Toshtemirova Z.M. Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	268
Uralov E.O. Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....	273
Xursanova F.Sh. Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....	278
Yuldasheva G.A. Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli	282
Абдуллаева Р. Тadbirkorlikning zamonaviy kuryentlari.....	287
Юлдашев А. Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари	292
Abdumalikova Z., Razakova B.S. O'zbekiston sug'urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo'nalishlar.....	294
Azimov B.F. Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	300
Begaliyeva M.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	304
Dawletmuratov A.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish mexanizmlari.....	308
Karimova L.S., Jabborov A.A. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	313
Maxmudov F.U. Oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	319
Navruz-zoda L.B. Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo'lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	323
Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T. Chorvachilik tarmog'ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	327

Nurmirezayeva N.R. Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	331
Rahimov A.M. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	335
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	339
Ravshanova M.M. Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	343
Ro‘ziboyeva M. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	347
Saidova F.K., O‘rozov Sh. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	350
Sultonov S.N. Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	354
Sultonova D.U. Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	358
To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z. Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiqu.....	362
Tursunova N.U. Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	368
Акрамова Г.А. «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	374
Болтаев Ж.А. Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	379
Жунайдуллаев М.А. Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	384
Митрушова М.Л. Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	388
Муродов О.У. Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	392
Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А. Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	396
Sarkarov S.Z. O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	401
Minojiddinova N.M. Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	406
Ruzmetova I.Y. Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	410
Qudratov D., Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	414
Qodirov H.D. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	417
Kinjayev K.N. Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	421
Макушина А.Ю. Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	424
Rejapov X.X., Oxunjonova K.K. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	430
Махкамова Н.С. Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития	434
Avilov N., Muhammadova G. Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	441
Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	444
Yusupova M.B. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	447
Toshpo‘latov M.A. Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	452
Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H. Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	458
Хамракулов С.М. Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	461
Zayavitdinova N.M. Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	465
Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	469
Ботирова З.Қ. Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	475
Бегимова Н.К. Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	481

**O‘ZBEKISTONDA YASHIL ENERGIYADAN FOYDALANGAN HOLDA KICHIK
BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA MOLIVAVIY
MEKANIZMLARI**

**ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ФИНАНСОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ МАЛОГО
БИЗНЕСА НА ОСНОВЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗЕЛЕНОЙ ЭНЕРГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ**

**INSTITUTIONAL AND FINANCIAL MECHANISMS FOR DEVELOPING SMALL
BUSINESS BASED ON GREEN ENERGY IN UZBEKISTAN**

Isoqova Madina Abduvahob qizi

University of Business and Science Yashil iqtisodiyot kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada O‘zbekistonda yashil energiyadan foydalanish asosida kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqotda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining iqtisodiy ahamiyati, kichik biznes subyektlari faoliyatida energiya samaradorligini oshirish imkoniyatlari hamda davlat tomonidan yaratilayotgan huquqiy va tashkiliy sharoitlar o‘rganilgan. Shuningdek, investitsiyalarni jalb etish, subsidiyalar va imtiyozli kreditlar orqali yashil energiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yashil energiya, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, kichik biznes, institutsional mexanizmlar, moliyaviy mexanizmlar, investitsiyalar, energiya samaradorligi, subsidiyalar.

В данной научной статье проанализированы институциональные и финансовые механизмы развития малого бизнеса на основе использования зеленой энергии в Узбекистане. В исследовании рассмотрены экономическая значимость возобновляемых источников энергии, возможности повышения энергоэффективности в деятельности субъектов малого бизнеса, а также правовые и организационные условия, создаваемые государством. Особое внимание уделено механизмам привлечения инвестиций, субсидиям и льготному кредитованию проектов в сфере зеленой энергетики.

Ключевые слова: зеленая энергия, возобновляемые источники энергии, малый бизнес, институциональные механизмы, финансовые механизмы, инвестиции, энергоэффективность, субсидии.

This scientific article analyzes the institutional and financial mechanisms for developing small businesses based on the use of green energy in Uzbekistan. The study examines the economic importance of renewable energy sources, opportunities to improve energy efficiency in small business activities, and the legal and organizational framework established by the government. Special attention is given to investment attraction mechanisms, subsidies, and preferential lending for green energy projects.

Keywords: green energy, renewable energy sources, small business, institutional mechanisms, financial mechanisms, investment, energy efficiency, subsidies.

So‘nggi yillarda global iqtisodiyotda ekologik barqarorlik va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash ustuvor yo‘nalishga aylandi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish iqtisodiy o‘rish va energiya xavfsizligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ilgari surilgan “toza va arzon energiya” maqsadi alohida o‘rin tutadi.

O‘zbekistonda ham yashil energiyani rivojlantirish va uni iqtisodiyotga joriy etish bo‘yicha islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlat dasturlari doirasida quyosh va shamol energiyasidan

foydalanishni kengaytirish kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Kichik biznesda energiya xarajatlari yuqori bo‘lgani sababli, yashil texnologiyalarni joriy etish samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Shu bois, mamlakatda kichik biznesni rivojlantirishda yashil energiyadan foydalanish bo‘yicha institutsional va moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda investitsiyalar, subsidiyalar va xalqaro moliyaviy institutlar ishtiroki muhim rol o‘ynamoqda.

Yashil energiyadan foydalanish va kichik biznesni rivojlantirish masalalari ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar mazkur sohaning nazariy asoslarini shakllantirish hamda amaliy mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, Michael Porter o‘zining raqobat ustunligi nazariyasida ekologik innovatsiyalar va resurslardan samarali foydalanish korxonalarining uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta‘minlashini ta‘kidlaydi. Uning “The Competitive Advantage of Nations” asarida qayd etilishicha, energiya samaradorligini oshirish va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish korxonalar xarajatlarini kamaytirish bilan birga, yangi bozor imkoniyatlarini yaratadi [1].

Shuningdek, Nicholas Stern “The Economics of Climate Change: The Stern Review” asarida iqlim o‘zgarishining iqtisodiy oqibatlarini chuqur tahlil qilib, yashil energiyaga o‘tish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy jihatdan ham foydali ekanligini asoslab beradi. Uning fikricha, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga investitsiyalar kiritish uzoq muddatda iqtisodiy yo‘qotishlarning oldini olishga xizmat qiladi [2].

Qayta tiklanuvchi energiya va kichik biznes o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi International Energy Agency tomonidan chop etilgan hisobotlarda ham keng yoritilgan. Ushbu tashkilotning tahlillariga ko‘ra, kichik va o‘rta biznes subyektlarida energiya samaradorligini oshirish orqali ishlab chiqarish tannarxini sezilarli darajada kamaytirish mumkin, bu esa ularning bozor raqobatbardoshligini oshiradi [3].

Moliyaviy mexanizmlar nuqtai nazaridan Jahon banki ekspertlari tomonidan tayyorlangan ilmiy ishlarda rivojlanayotgan mamlakatlarda yashil energiya loyihalarini moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik, subsidiyalar va imtiyozli kreditlash tizimlari muhim rol o‘ynashi ta‘kidlangan. Xususan, ushbu tashkilotning hisobotlarida kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus moliyaviy instrumentlarni joriy etish zarurligi qayd etiladi [4].

Mahalliy olimlardan A. Vahobov o‘z ilmiy ishlarida O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida energiya resurslaridan samarali foydalanish muhimligini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish kichik biznes faoliyatining barqarorligini ta‘minlashga xizmat qiladi [5].

Bundan tashqari, Sh. Shodmonov va U. G‘afurov o‘zlarining iqtisodiyot nazariyasiga oid asarlarida kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni va uni rivojlantirish omillarini tahlil qilib, energiya samaradorligi va innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim omillardan biri ekanligini qayd etadilar [6].

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, yashil energiyadan foydalanish kichik biznesni rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Biroq, O‘zbekiston sharoitida ushbu yo‘nalishda institutsional va moliyaviy mexanizmlarni kompleks tarzda takomillashtirish zarurati mavjud bo‘lib, bu mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilab beradi.

Mazkur tadqiqotda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirish jarayonlarini o‘rganishda tizimli va kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot davomida iqtisodiy-statistik tahlil, solishtirma tahlil hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasi o‘zaro taqqoslab o‘rganildi. Ma‘lumotlarni tahlil qilishda rasmiy statistik manbalar va xalqaro tashkilotlar hisobotlariga tayanildi. Olingan natijalar asosida ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar shakllantirildi.

O‘zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirish masalasi so‘nggi yillarda iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish,

energiya samaradorligini oshirish hamda kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash imkoniyatlari kengayib bormoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes subyektlarida energiya xarajatlari umumiy xarajatlarning 15–30 foizini tashkil etadi, bu esa ularning rentabelligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Yashil energiya texnologiyalarini joriy etish natijasida ushbu xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Masalan, quyosh panellari va kichik quvvatli shamol generatorlaridan foydalanish orqali elektr energiyasi uchun sarflanadigan xarajatlar 20–40 foizgacha qisqarishi mumkin. Bu esa kichik biznes subyektlarining foyda darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, energiya manbalarining diversifikatsiyasi ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlab, tashqi energiya ta’minotiga bog‘liqlikni kamaytiradi.

O‘zbekistonda yashil energiya sohasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy baza takomillashtirilmoqda, davlat dasturlari va strategiyalar ishlab chiqilmoqda. Bu jarayonda O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, jumladan, quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish, kichik biznes uchun energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni qo‘llab-quvvatlash muhim o‘rin tutadi.

Moliyaviy mexanizmlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yashil energiya loyihalarini rivojlantirishda investitsiyalarni jalb etish, subsidiyalar va imtiyozli kreditlash tizimi asosiy vositalardan hisoblanadi. Xususan, Jahon banki hamda Osiyo taraqqiyot banki tomonidan ajratilayotgan mablag‘lar kichik biznes subyektlarining yashil energiya texnologiyalariga o‘tishini rag‘batlantirmoqda. Ushbu moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari natijasida kichik biznes subyektlarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish darajasi oshib bormoqda.

Quyida kichik biznes subyektlarida yashil energiya texnologiyalarini joriy etish natijasida asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi keltirilgan:

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, yashil energiya texnologiyalarini joriy etish kichik biznes subyektlarida iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Xususan, energiya xarajatlari kamayishi hisobiga ishlab chiqarish tannarxi pasayadi, bu esa yakuniy mahsulot narxining raqobatbardoshligini oshiradi. Natijada, korxonalarning rentabellik darajasi ortadi va ularning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanadi.

1-jadval

Yashil energiya texnologiyalarini joriy etish natijasida kichik biznes ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi

Ko‘rsatkichlar	An’anaviy energiya (%)	Yashil energiya (%)	O‘zgarish (%)
Energiya xarajatlari ulushi	25	15	-10
Ishlab chiqarish tannarxi	100	85	-15
Rentabellik darajasi	12	20	+8
Energiya samaradorligi	100	135	+35

Shu bilan birga, yashil energiya texnologiyalarini joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, boshlang‘ich investitsiya xarajatlarning yuqoriligi, texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda malakali kadrlar yetishmasligi ushbu jarayonni sekinlashtiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ushbu muammolarni hal etishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish, xususiyl sektor ishtirokini kengaytirish va innovatsion moliyaviy instrumentlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, O‘zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirish katta iqtisodiy salohiyatga ega bo‘lib, ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun institutsional va moliyaviy mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarur. Yashil energiyadan foydalanish kichik biznesni barqaror rivojlantirishning muhim omili bo‘lib, u energiya xarajatlarni kamaytirish, samaradorlikni oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu jarayon kichik biznesning moliyaviy barqarorligini mustahkamlab, umumiy iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishda institutsional va moliyaviy mexanizmlar - davlat dasturlari, imtiyozlar, investitsiyalar va kreditlash tizimi - muhim rol o‘ynamoqda. Biroq, yuqori boshlang‘ich xarajatlar, infratuzilma va kadrlar muammolari rivojlanishni cheklamoqda.

Shu sababli, davlat-xususiy hamkorlikni kuchaytirish va innovatsion moliyaviy instrumentlarni keng joriy etish zarur. Umuman olganda, yashil energiya kichik biznes rivoji bilan birga ekologik barqarorlikni ham ta‘minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. Free Press nashriyoti, Nyu-York shahri, 1990, 45–67-betlar.
2. Stern N. The Economics of Climate Change: The Stern Review. Cambridge University Press nashriyoti, Kembrij shahri, 2007, 112–130-betlar.
3. International Energy Agency. Energy Efficiency 2022. IEA nashriyoti, Parij shahri, 2022, 78–95-betlar.
4. World Bank. Financing Climate and Green Growth. World Bank Publications, Vashington shahri, 2021, 56–74-betlar.
5. Vahobov A.V. Milliy iqtisodiyot. “O‘zbekiston” nashriyoti, Toshkent shahri, 2019, 210–225-betlar.
6. Shodmonov Sh.Sh., G‘afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. “Fan va texnologiya” nashriyoti, Toshkent shahri, 2018, 134–150-betlar.
7. REN21. Renewables Global Status Report. REN21 Secretariat, Parij shahri, 2023, 60–85-betlar.
8. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. Energetika sohasini rivojlantirish dasturi. Toshkent shahri, 2022, 15–28-betlar.
9. World Bank, Asian Development Bank. Green Finance Development Report. Vashington shahri, 2023, 90–110-betlar.

UDK:331.2

KORXONALARDA MEHNATGA HAQ TO‘LASH HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH VA AUDIT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

ПУТИ АВТОМАТИЗАЦИИ УЧЕТА ОПЛАТЫ ТРУДА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ И ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ АУДИТА

WAYS TO AUTOMATE PAYROLL ACCOUNTING IN ENTERPRISES AND IMPROVE AUDIT EFFICIENCY

Mamadaliyev Boburjon

Andijon davlat texnika instituti “Buxgalteriya hisobi va audit” yo‘nalishi talabasi

Teshaboyev Jamshidbek

Andijon davlat texnika instituti “Buxgalteriya hisobi” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada korxonalarda mehnatga haq to‘lash hisobini avtomatlashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini hamda audit samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ish haqi hisobini yuritishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, inson omilini kamaytirish va hisob-kitob jarayonlarini optimallashtirishning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ichki audit tizimini takomillashtirish orqali moliyaviy shaffoflikni oshirish va xatoliklarni minimallashtirish yo‘llari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: mehnatga haq to‘lash, avtomatlashtirish, audit, ichki nazorat, ish haqi hisobi, raqamli texnologiyalar, samaradorlik.